

**MAYDONLAR VA ULARNING SHAHRLARNING ME'MORIY –FAZOVIY TARKIBINI  
SHAKLLANTIRISHIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI****Saloxiddinova Dilorom Zuxurovna***Arxitektura fanlari nomzodi, katta o'qituvchi***Rashidova Maxbuba Raximovna***Samargand Davlat Arxitektura-Qurilish Instituti magistranti*

Phone number: +99894 6120424

E-Mail: rashidovamaxbuba7@gmail.com

**Annotation**

The article analyzes the role and importance of sites in the formation of the architectural and spatial structure of cities, the types and forms of sites.

**Key words**

architecture, main square, small architectural forms, functional, public buildings, city history, ensembles, spatial environment, relief, compositional means, architectural-planning

**Annotatsiya**

Maqlada maydonlarning shahrlarning me'moriy –fazoviy tarkibini shakllantirishidagi o'rni va ahamiyati, maydonlarning turlari va shakllari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar**

me'moriy, bosh maydon, kichik me'moriy shakllar, funksional, jamoat binolari, shahar tarxi, ansamblar, fazoviy muhit, relyef, kompozitsion vositalar, arxitekturaviy-rejaviy.

Maydon-ochiq, me'moriy jihatdan tartibga keltirilgan, atrofi bino, inshootlar yoki daraxtlar bilan to'silgan keng sath. To'rtburchakli, doirasimon, tuxumsimon (oval) va boshqa shakllarda yopiq yoki ochiq holda bo'ladi. O'tmishda Ossuriya, Bobil, qadimgi Misrdagi saroy va ibodatxonalar majmuasi tarkibida dabdabali hovli-maydonlar bo'lgan. Ularning me'moriy an'analarini yunonlar (agara) va qadimgi rimliklar (form) davom ettirgan. 12-14-asrlarda Yevropa shaharlaridagi savdo-sotiq qilinadigan maydonlar bosh maydon hisoblangan. Uyg'onish davridagi maydonlar shahar hayotida katta ahamiyatga ega bo'lib, maydonga yig'ilgan xalqqa e'lon va farmoyishlar o'qilgan, va'z aytilgan. Barokko, klassitsizm uslubida doirasimon, ko'pburchakli, murakkab shakldagi maydonlar shaharsozlikning tarkibiy qismiga aylantirilgan.

O'rta Osiyo shaharlarida 14-16-asrlarda savdo-sotiq qilinadigan gavjum joylardagi maydonlar (mas, Registon. Chorsu) shaharsozlikning noyob namunasi sifatida diqqatga sazovordir. Zamnaviy shaharsozlikda maydonlarning 2 turi (transport va piyodalar uchun) keng tarqalgan [1]. Maydonlarning shaharda me'moriy-tarixiy va funksional roli mavjud.

Asosiy maydonlar-jamoat binolariga boriladigan piyoda yo'llar, namoyishlar o'tkazilishi uchun mo'ljallanadi; unda transport harakati bo'lmasligi kerak. Jamoat binolari va inshootlari oldidagi maydon-bu binolarga, avtomobil to'xtash joylariga, ommaviy yo'lovchi transportlarining to'xtash joylariga borish uchun.

Transport maydonlari –yondashgan ko'chalarga transport oqimlari taqsimlanadi. Ommaviy tashrif markazlarining joylashuvi kerak emas.

Vokzal oldi maydonlari-tashqi transport inshootlariga, avtomobil to'xtash joylariga, yo'lovchi transportlari bekatlariga kirish hamda transport va piyodalar oqimlarini tashkil etish va ajratish uchun.

Zavod oldi maydonlari –kirish joylariga, to'xtash joylari va bekatlarga kelish uchun.

Bozor va savdo markazlari yaqinidagi maydonlar-kirish joylariga, bekat va to'xtash joylariga kelish uchun.

Ko'p funksiyali maydonlar-maydonning shahar tarxida o'rni va uning bajaradigan ishi bosh tarxda aniqlanadi. Maydonni loyihalashda transport va piyodalar harakatini tashkil etish sxemasini tuzish lozim.

Maydonni loyihalashda funksional qismlarga ajratish lozim:

- transport oqimlarini o'tkazish ;
- piyodalar qismi;
- avtomobil to'xtash joylari;

-ommaviy yo'lovchi transport to'xtash joylari [2].

Shaharning me'moriy-badiiy ko'rinishining ma'nodorligi quyidagilarga asoslanadi; magistral ko'chalar bilan bog'langan asosiy ansamblar (jamoat markazlari, maydonlar); shaharning umumiy rejaviy tuzilishi; bu ansamblarning vizual aloqasi va shaharning fazoviy muhitlarini to'g'ri ochib berish; qurilish hududining milliy va iqlimiyl xususiyatlarini hisobga olish; shahar kompozitsiyasiga tabiat elementlari -relyef, o'simliklar, suv havzalarini ko'p miqdorda qo'shish; kompozitsion vositalar-rang, kontrast, ritm, masshtab va masshtablilikdan foydalanish, qurilishga arxitektura yodgorliklarini qo'shish.

Shahar maydonlari har xil arxitekturaviy-rejaviy tashkil etishga ega bo'lshi mumkin. Maydonlar yopiq, butunlay qurilmalar bilan o'ralgan bo'lshi mumkin. Ularning kompozitsiyasi va badiiy ma'nodorligi maydonning shakli, mutanosibligi va atrofidagi binolar arxitekturasiga boglik[3].

Maydonlar ko'chalar bilan bog'liq bo'ladi. Asosiy kirish ko'chasining o'qi markaziy maydonning o'rtaсидаги binoga, haykalga qaratilgan bo'lib, shu yerda tugaydi. Boshqa ko'chalarning bir tomoni maydonga tegib o'tadi. Ko'chalar markaziy maydon bilan bog'langanda quyidagi shartlar bajarilishi kerak:

1. Maydon bilan ko'chalarni bog'lashda, ko'chalarni loyihalash tizimi hisobga olinadi.
2. Maydonga chiqadigan ko'chalar soni 3-5 tadan oshmasin;
3. Maydonga chiqqan ko'chalarning jami eni, maydon perimetring yarmisidan kam bo'lshi kerak.
4. Maydondan o'tib ketadigan ko'chalar maydon chetiga tegib o'tadi va undan ko'rini turadi.
5. Ko'chalar maydondan o'tganda, uni bo'lmasligi kerak.
6. Markaziy kirish ko'chasi o'qi, maydondagi asosiy bino, haykal, monument o'qiga to'g'ri kelishi kerak.
7. Ko'chalar, maydondan o'tganda, uning transportlar yuradigan qismi aniq ko'rsatiladi.

Maydonlar shakli joyning relyefiga, quriladigan obyektlarning shakliga va ko'chalar bilan bog'lanishiga qarab har-xil bo'lshi mumkin. Maydonning eni uzunligiga nisbatan 1:1, 1:2, 1:3 bo'lib, ulardan eng yaxshisi 1:1,6 hisoblanadi.

Agar maydonning eng yaxshi ko'rinaridigan joyiga-markaziga baland, katta, hashamatli bino joylashtirilsayu, uning atrofiga unga "itoat" qiladigan binolar, inshootlar joylashtirilsa, buni faol usulda joylashtirish deyiladi.

Maydonning hamma tomonidan binolar, inshootlar qurilgan bo'lsa yopiq, agar bir tomoni ko'l, hovuz, landshaftli joylarga qaratilgan bo'lsa, ochiq maydon deyiladi. Markaziy maydonga shu joyning talabiga javob beradigan inshootlar -klub, ma'muriy bino, savdo markazi, oshxona, choyxona kabi binolar quriladi. Markaziy maydonga inshootlar joylashtirilganda, uning me'moriy kompozitsiyasiga ahamiyat beriladi. Maydonga joylashtirilgan binolar, inshootlar va boshqa elementlar bir-biri bilan uyg'unlashib, bir-birini to'ldirib, o'ziga xos me'moriy ansamblni tashkil qiladi, ya'ni bu yerga hech qanday elementni qo'shib ham yoki birorta elementni olib tashlab ham bo'lmasin. Markaziy maydonni tashkil qilishda me'moriy kompozitsiya qurollaridan to'liq foydalaniladi [7].

Shahar maydonlari shaharning ko'zga ko'ringan maskanlardan bo'lib, shahar badiiy qiyofasini tasvirlashda asosiy o'rinni egallaydi. Yana ham aniqroq aytadigan bo'lsak, maydon shu shaharning "silueti" yoki monumentlar o'rnatiladigan asosiy maskan, aholi to'planadigan, turli bayramlar, tantanalar o'tkaziladigan joy hisoblanadi.

Shahar maydonlari strategik jihatdan ham ahamiyatli bo'lib, u bir necha ko'chalarni kesishuv joylarini ham belgilab berishi mumkin. Misol tariqasida, Toshkent shahridagi Amir Temur hiyobonini oladigan bo'lsak, maydon markaziga Amir Temur haykali o'rnatilgan bo'lib, maydon Amir Temur ko'chasi, Istiqlol, Mustaqillik va Sayilgoh kabi ko'chalarni birlashtiradi. Demak, maydon bir vaqtini o'zida shahar transport tizimiga ham ta'sir ko'rsatmoqda.

Bundan tashqari, qadim qadimdan insonlar maydonlarda turli tadbirlar o'tqazib kelishgan. Uzoqqa bormasdan o'zimizni O'rta Osiyo misolida oladigan bo'lsak, asosiy bayramlarimiz maydonlarda keng nishonlanib kelingan. Jumladan, Navro'z bayramini oladigan bo'lsak, bayram arafasida turli tuman xalq o'yinlari, laparlari, aytishuvlar, sahna ko'rinishlari, dor o'yinlaridan tortib polvonlar kurashigacha barchasi maydonlarda bo'lib o'tgan [4].

#### Foydalanilgan adabiyotlar :

1. O'zbekiston ensiklopediyasi
2. D.U.Isamuhamedova "Shaharsozlik asoslari" I qism. 2009 y, 63-64 b.
3. D.U.Isamuhamedova "Shaharsozlik asoslari" I qism. 2009 y, 120 -121 b.
4. <https://www.hozir.org>
5. Axmedov M.Q. O'rta Osiyo me'morchiligi tarixi .-Toshkent "O'zbekiston", 1995, 11-30 b.
6. O'zbekiston zamonaviy shaharsozligida me'moriy ansambl va komplekslar /S.B.Manoev –Samarqand: Zarafshon, 2014.78 b
7. ARXIV.UZ